



# KONCHILAR HAYOTI



Gazeta 1991-yildan chiqqan boshlagan №19 (757), 2023-yil 14-oktabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official


www.ngmk.uz

■ 21-oktabr - O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun

## “SEN TILNI SHARAFLA, EL UCHUN NOMUS BIL”



**Dunyoda inson zoti yaratilbdiki, bir-biri bilan so'zlashadi, o'zaro muomalada bo'ladi. Bunda, tilning o'zni beqiyos, albatta. Inson til orqali boshqa tirik jonlardan ongli ravishda farq qiladi. Dunyoda tillar ko'p, lekin har bir xalq, har bir millat uchun o'z tili qadrdon va sevimli, chunki shu tilda u bemaol muloqot qiladi, o'z fikr-tuyg'ularini bevosita erkin ifoda etadi. O'zbek xalqi qanchalik teran tarixga ega bo'lsa, ona tilimiz ham shunchalik uzoq tarixga egadir. Asrlar davomida xalqimiz qanday kunlarni boshidan kechirgan bo'lsa, tilimiz ham shunday kunlarni boshidan kechirdi.**



Til millatning muqaddas mulki, ma'naviy boyligidir. Millat o'zligini ko'rsatadigan, millat degan ulug'vor tushunchani shakllantiruvchi asosiy unsurlardan biri ham eng avvalo tildir. Tilshunos olim N.Mahmudov "...benihoya muhtasham va muntazam mazmuniy unsur, murakkab mohiyatdir" - deb ta'kidlaydi. Buni teran anglagan ulug' ajdodlarimiz milliy til taraqqiyoti uchun doimo kurashib kelganlar.

1989-yilning 21-oktabr kuni Vatanimizda davlat tilining huquqiy asoslarini belgilash bo'yicha "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun qabul qilinib, unga ko'ra O'zbek tiliga davlat tili maqomi berildi. Til har bir millatning ko'zgusi, uning haqiqiy sarchashmasidir.

Tilni bejizga onaga qiyoslashmaydi. Inson onasining sof muhabbati, mehri tuymasdan yashay olishi mumkin emas. Fikrimizning isboti sifatida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 30 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqidan quyidagi so'zlarni keltirishimiz mumkin: "Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasini va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hoziflarimizning sehirli qo'shiqlariga quloq tutsin".

XX asr avvalida o'zbek xalqining ko'zga ko'ringan ziyolisi, tilshunosi Abdurauq Fitrat vaqtli matbuotda "Tilimiz"

("Ishtirokiy" gazetasi 1919-yil, 12-iyun soni) nomli dolzarb maqolasini e'lon qiladi. Maqolaning umumiy ruhi turk (o'zbek) tilining o'tmishi va kelajagi, taqdiriga qaratilganligi bilan ahamiyatli. Unda, Fitrat o'zbek tilini dunyoda nihoyatda boy, lekin baxtsiz deb ataydi. Xo'sh, baxiligi nimada-yu, baxtsizligi nimada?! Tilimizning baxtini, betakror so'z boyligini Fitrat arab tili bilan qiyoslan tekshiradi, o'zbek tilidagi fe'llarning (harakat tarzi fe'llari) nutqda turli ma'no qirralarini ochib beradi. Baxtsizligini esa, ko'plab qonuniy olimlarning, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy va boshqalarning o'z asarlarini arab tilida yaratganida deb ko'rsatadi. Agar ular o'z asarlarini o'zbek tilida yaratganida, dunyo ilm ahli bu noyob durdonalarni tilimizda o'qishga harakat qilgan va o'rgangan bo'lardi.

Turkiy tilning boy imkoniyatlarga ega ekanligini birinchi bo'lib Alisher Navoiy o'z asarlari orqali isbotlab, nazariy asosi sifatida "Muhokamat ul-lug'atayn" nomli asar yaratdi. Hazrat Navoiy turkiy tili dunyo uzra "yaqqalam" qilishga, turkiy tillarni bir adabiy til doirasiga tortishga intildi. Buning yorqin isbotini o'zining o'lmas asarlari orqali ko'rsatdi.

"Turk alfozida... olame nazarga keldi, - deb yozadi shoir "Muhokamat ul-lug'atayn"da, - o'n sakkiz ming olamdin ortuq, anda zeb-u ziyat...to'qqiz falakdan ortuq; anda mahzane (xazina) uchradi, durlari kavokib (yulduz) gavharlaridin ravshanroq..." Navoiy o'z ona tilini o'n sakkiz ming olamdin



ortiq deb hisoblaydi. Uning xazinalari durlarga to'la, uning gullari osmon yulduzlaridan ham ravshanroq deb biladi. Turkiy va fors tili muhokama va musohabasiga bag'ishlangan "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy til boyligini va imkoniyatlarini boshqa tillardan qolishmasligini xolis baholaydi. Qullik ham, erkinlik ham tildan boshlanadi. Xalqimiz o'tmishi qanchalik murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lsa, tilimiz ham bundan kamini ko'rmadi. Til - avvalo ijtimoiy hodisa. Jamiyat taraqqiyoti unga katta ta'sir ko'rsatadi. Lug'at boyligi kengayib boradi. Lekin, bu o'z tilini unitish, kamsitish hisobiga bo'lmasligi lozim. Avlodlardan - avlodlarga meros qoladigan asosiy boyluk - Til. Ona tili bor ekan, Vatan bor, Millat bor. Xalqning umr o'lchovini tili belgilaydi, dunyo miqyosidagi nufuzini ko'rsatadi.

Shukrki, bugun tilimizga bo'lgan e'tibor o'z o'rnini topmoqda. Ish yuritish, diplomatik munosabatlar

hamma-hammasi o'zbek tilida amalga oshirilmoqda. Aslida ham shunday bo'lishi zarur. Manaman degan jahon sporti shohsupasida o'zbek madhiyasi yangramoqda. Bundan esa ko'ngil g'urur, faxr tuyg'usini tuyadi. Shoir Jamol Kamol aytganidek: "Sen tilni sharafla, el uchun nomus bil...Yo'llarni yorituvchi go'zal fonus bil".

Ona tilini sevhish ham vatanparvarlik belgisi, ajdodlar ruhiga hurmat ramzidir. O'z tilini hurmat qilgan xalq o'zligini, o'z g'ururini asrab-avaylagan bo'ladi. Ona tiliga muhabbat har bir so'zning ma'nosini chuqur anglagan holda ishlatish, uni yaxshi bilish, asrab-avaylash kabi fazilatlarida namoyon bo'ladi. Shunday ekan, biz, ayniqsa, o'zbek tili o'qituvchilari tilimizning beqiyosligini, rang-barangligini, kelgusi avlodga teran yetkazishimiz muqaddas burchimiz ekanligini aslo unutmasligimiz kerak. Zero, davlat tili birligimiz, borligimiz ramzidir. Shuningdek, ayni damda yoshlarimiz

ongiga milliy g'urur va nafosatni yuksaklarga ko'tarishni mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan taraqqiy etishi, xalqaro obro'-e'tiborining yuksalishi uchun ona tilimizni yanada boyitish, uni puxta egallashimizga ham ko'p jihatdan bog'liq ekanligini takror va takror uqitirishimiz zarur. Ana shunda yosh avlod qalbida tilimizga yanada mehr oshadi, kelajakda ular o'z ma'naviy barkamoligini ko'rsata olishi, shubhasizdir. Har bir korxonada, tashkilot, muassasa, oliy o'quv yurtlari, bilim dargohlarida "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun so'zsi bajarilishiga erishishimiz lozim. Shunda ona tilimizning mavqei oshadi. Bu esa O'zbekiston jahonga yuz tutayotganligi, tenglar ichra teng ekanligining amaliy ifodasi bo'ladi.

**Zarif QUVONOV,**  
Navoiy davlat pedagogika instituti dotsenti,  
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

■ Tadbir

## MILLIY LIBOSIMIZ - G'URURIMIZ

"Muhayyo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, Ko'zimni Yarshatib kiyibsiz atlas"... Har gal shu qo'shiqni eshitasam bolaligim esimga tushadi. Yosh qizaloqlar, kelin-juvonlarning sochlari qirg'okil qilib o'rigan, egnida yal-yal yonib turgan atlas ko'ylaklardagi xushbichim surati gavdalanadi. Serjilo atlasu adrasning xilma-xil turlaridan har bir xonadonda istagancha topilar, o'zimizga yoqqan rusumda tiktirib, ohori to'kilguncha kiyar edik...Cho'g'dayin yonib turgan xonataslar yoshu qariga birday yarashar edi.



atlas kiygan ayollarning chiqishlari barchada katta qiziqish uyg'otdi. Ayniqsa, ishtirokchilar kitoblar hamda taqinchoqlar ko'rgazmasini zo'r qiziqish bilan tomosha qildilar.

Tadbirda so'z olganlar milliy urf-odatlar va qadriyatlarimizga mos liboslarni keng targ'ib etish, o'sib kelayotgan yosh avlodni azaliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda ayollarning roli nihoyatda muhimligi, el-yurtimizga xos ezuq fazilatlarini asrab-avaylash va ulug'lash kabi dolzarb masalalar yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini bayon etdilar.

- Milliy liboslarimiz qanday ajoyib. O'zbek millatining faxri va g'ururi bo'lgan atlas, adraslarga mehrim bo'lakcha. Bugungi tadbirda xotin-qizlarimizning milliy qadriyatlarimizga hurmatini, egnida yal-yal yonib turgan sharqona liboslarimizni ko'rib rosti, judayam quvondim. Chunki, insonning tashqi ko'rinishi, kiyinishi, uning ma'naviy

dunyosini aks ettiruvchi ushbu mato millatining o'tmishi, buguni va kelajagini oynadek ko'rsatib turuvchi ko'zgudir. Har bir millat va xalqning o'zligini anglichi va asrashi, sha'nini ulug'lashida qadriyatlarining o'rmi beqiyos. Milliy kiyimlardagi o'ziga xoslik esa millatning "men"ligini namoyon etib turadi. Festivaldan ko'zlangan asosiy maqsad ham milliy liboslarimizda xalqimizning asrlarga tutash o'tmishi, urf-odatini va an'analarini, estetik qarashlari, betakror fazilatlarini namoyish etishdan iboratdir. Zotan, xonatas - eng yorqin ranglar, tabiat jilosi, gullar tasvirini o'zida mujassam etgan o'zbek milliy matosi hisoblanadi, - deydi "NKMK" AJ ayollar Kengashi raisi Sabohat Nazarova.

Tadbir davomida "Farhod" madaniyat saroyi badiiy ijodkorlari tomonidan ijro etilgan kuy-qo'shiqlar ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat baxsh etdi.

**D.KARIMOVA.**

■ K 65-letiyu NGMK

## ПРОФЕССИОНАЛИЗМ, ОПЕРАТИВНОСТЬ И КАЧЕСТВО

Гидрометаллургическое производство представляет собой многогранную и сложную цепь различных процессов, и каждый механизм в нём играет важную роль.



Таким образом, Центральную заводскую лабораторию (ЦЗЛ) гидрометаллургического завода №3 Северного рудоправления АО «НГМК» нельзя отнести к «вспомогательным» службам. Вместе с рядом основных заводских цехов, она вошла в число тех объектов, без которых пуск и дальнейшая эксплуатация ГМЗ-3 в 1995 году были бы просто невозможны.

С 2020 года ЦЗЛ ГМЗ-3 возглавляет Одинахон Мирзоева, молодая, но опытный и высококвалифицированный спе-

циалист, имеющая почти 20-летний стаж работы в ЦЗЛ, уроженка города Учкудука. Она и рассказала о деятельности лаборатории, её работниках, трудовых буднях и достижениях.

- В ЦЗЛ на сегодняшний день трудятся более 100 работников, средний возраст которых 35 лет, из них 75% - это женщины. Заводская лаборатория состоит из трёх структурных подразделений - группа пробирного анализа, группа фазового контроля и группа технологических иссле-

дований. Группа технологических исследований занимается параллельным наблюдением технологических параметров, исследовательскими работами. Это, по большому счёту, мини-завод ГМЗ-2, со всем необходимым оборудованием, только уменьшенного размера - флотомашини, мельницы, дробилки, пачуки цианирования и т.д. То есть мы можем имитировать работу любого цеха завода, и заранее определить качество работы технологической цепочки, качество поступивших на завод руд, реагентов и реактивов, используемых в данной технологии. Если обнаруживается какое-либо отклонение, то наша группа занимается работой от отбора проб руд, сырья, реагентов до проведения исследовательских работ, чтобы определить, в чём произошло нарушение технологии. А также оказываем методическую помощь другим нашим гидрометаллургическим заводам.

Группа пробирного анализа занимается определением состава золота в продуктах переработки в твёрдой фазе, пульпе, руде, хвостах и т.д. В день здесь проводятся около 100 анализов проб пульпы на содержание золота, около 30 анализов проб угля и другие. А также анализируем геологоразведочные пробы руды из карьеров, чтобы определить качество пригодности руды для наших технологий. Все эти исследовательские работы направлены на улучшение производственных показателей.

Продолжение на стр. 2



## ■ К 65-летию НГМК

ПРОФЕССИОНАЛИЗМ,  
ОПЕРАТИВНОСТЬ И  
КАЧЕСТВО

## ■ Окончание. Начало на стр. 1

Группа фазового контроля занимается определением состава входного контроля реагентов. К нам на завод поступают такие реагенты как циан, известь, шёлочь, сода и другие в больших объёмах, в целом, это около 60% всех необходимых для работы завода реагентов, и мы определяем и контролируем их качество. Кроме того, группа фазового контроля определяет в жидкой фазе пульпы содержание золота: 8 проб ежедневно, в сутки 192 пробы. Также каждый час контролируется процесс десорбции, определяется концентрация натрий циана в пульпе, чтобы сохранить заданные параметры. У группы фазового контроля также есть помещение в цехе биоокисления, где определяется содержание растворённого железа, мышьяка, серы, углерода, что очень важно для технологических показателей цеха. Содержание железа определяется каждые 4 часа, значит, 48 анализов в сутки, проб серы поступает 60-80 в сутки и т.д.

Также у нас действует небольшая лаборатория, занимающаяся анализами проб воды. Здесь работают опытные специалисты, которые контролируют состав технологических вод, ведь солевой состав воды играет важную роль в нашем гидрометаллургическом производстве.

ЦЗЛ выполняет широкий спектр испытаний, а после ввода новых технологий на заводе, изменения содержания руд добавились и новые виды анализов. Как обстоят дела с модернизацией оборудования лаборатории?

Вы правильно заметили, за последние годы в 3-4 раза увеличилась производительность завода, следовательно, увеличилось количество поступающих проб, и имеющегося оборудования нам уже было недостаточно. Поэтому в 2021-2022 годы для лаборатории приобрели два анализатора серуоллерода германского производства, две высокоточных весов для пробирного анализа. В группу технологических исследований закупили 6 новых флотомашин с камерами разного объёма. В ПО «НМЗ» для ЦЗЛ изготовили две новые лабораторные мельницы, которые практически не отличаются от оригинала. Так что, с объёмом работы мы справляемся.

Несмотря на то, что коллектив ЦЗЛ достаточно молодой, у вас есть работники, которые трудятся здесь со дня основания завода, и у них есть чему поучиться новичкам...

Действительно, в каждой группе лаборатории есть наставники.

К примеру, Хасан Каримов – опытный аппаратчик окисления в группе технологических исследований, которому можно доверить самые сложные и ответственные работы. У него немало учеников, многие из которых уже трудятся на инженерно-технических должностях в других цехах завода.

Лаборант Вазира Ахатова работает в группе фазового контроля, половина сотрудников которой её ученики. Мы всегда доверяем ей обучение практикантов, поскольку она прекрасно владеет узбекским и русским языками, доступно и грамотно объясняет, легко находит общий язык с молодёжью.

Римма Шакирова трудится в группе фазового контроля практически со дня основания лаборатории, ей присвоено звание «Ветеран НГМК», и она, как никто другой, знает все нюансы нашей работы и делится опытом с молодёжью.

В группе пробирного анализа также со дня основания ЦЗЛ работает Алишер Абдиев, который не только работает с новичками опытом, но и сам постоянно совершенствуется в профессии. В свои почти 50 лет он заочно учится в Навоийском государственном горно-технологическом университете на факультете металлургии.

Нашими наставниками мы гордимся, ведь благодаря им подрастает достойная смена молодых специалистов...

Важно отметить, что все работники ЦЗЛ ГМЗ-3 постоянно находятся в поиске новых методик работы. Для этого они стараются быть в курсе нововведений по своему направлению деятельности, изучают специальную литературу и пробуют применять у себя зарубежные практики, проводят научные исследования. Поэтому Центральная заводская лаборатория ГМЗ-3 в НГМК имеет весомый авторитет. На её базе многие специалисты комбината проводят исследования и работы по своим кандидатским, докторским, профессорским диссертациям. Если нужны срочные анализы каких-либо руд или испытание реагентов, то руководство рудоуправлений тоже обращаются сюда.

Коллективу доверяют, потому что ЦЗЛ ГМЗ-3 – это профессионализм, оперативность и качество.

Насиба ШАМУРАТОВА.

## ■ Орамиздаги odamlar

## YUZ BILAN YUZLASHGAN ONAXON

Toshkent viloyatining Parkent tumaniga yo'lingiz tushsa, asr bilan yuzlashgan Mag'mura To'layeva xonadoniga tashrif buyuring, onaxonni ziyorat qilib va albatta, u bilan hamsuhbat bo'ling. Bizning shunday piru badavlat insonlarimiz, duogo'y zamondoshlarimiz borligiga guvoh bo'lasiz.

Qahramonimiz Tataristonning Mamadish tumani Quyi Oshma qishlog'ida 1923 yil 15 sentabrda tavallud topgan. Taqdir taqozasi bilan o'tgan asrning 30 yillarida oilasi Krasnoyarsk o'lkasiga ko'chib o'tgan. Onaxonning bolaligi, yoshligi shu o'lkadagi oddiy qishloqda kechgan.

Otasi Miftax Fottahov hududda kollektivlashtirish ishlarida ishtirok etadi. Keyinroq esa o'sha yerdagi zavodlardan birida faoliyat ko'rsatadi. Mash'um Ikkinchi jahon urushi ularning oilasini ham chetlatib o'tmadi. Oila boshlig'i birinchilardan bo'lib frontga safarbar etildi. Yosh qizalok taqdirning ayovsiz sinovlari oldida dovdirab qolmadi. U Krasnoyarsk shahridagi snaryad zavodiga ishga kirib, ilk mehnat faoliyatini o'sha yerda boshladi.

U paytlar juda og'ir zamonlar edi. Qonimiz nonga to'ymasdi. Lekin, bunga chidashga, ertangi kunga umid bilan yashashga, sinovlar bilan kurashishga majbur edik, - deya xotirlaydi Mag'mura ona. - Urush, o'z nomi bilan urush! Hech kimni ayab o'tirmaydi. Urushning ilk yillarida otamizdan ayrildik, akam Minixon qo'lida qoldik. Tez orada uni ham frontga olib ketishdi. Hech qancha vaqt o'tmasdan, jangda ikkala oyog'indan ham ayrilib, qo'litiqayotqada qaytib keldi. Inson irodasi kuchli, nimaga intilsa, barchasiga erishar ekan. Minixon akam yarim jon bo'lishiga qaramay oilamizga bosh bo'lib, barchamizni hayot qiyinchiliklaridan eson-omon olib chiqdi...

Urushdan keyingi tiklanish yillarida O'zbekistonda ko'plab o'zbek yigitlari Krasnoyarsk o'lkasiga safarbar etildi. Ular orasida Olimjon To'layev ham bor edi. Hayotni qarangi, ikki qalb taqdiri shu yerda



tutashdi. Ular ish jarayonida tanishib, oila qurishadi. 50 yillarda yosh oila O'zbekistonga qaytadi. O'sha davrdan ularning hayoti bo' o'lka bilan chambarchas bog'landi. Ikkalasi ham respublikamizning Krasnogorsk qo'rg'onida joylashgan sobiq Leninobod kon-kimyo kombinatining 2-kon boshqarmasiga (ushbu kon boshqarmasi 1995 yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinati tasarrufiga o'tgan) ishga kirdi. Turmush o'rtog'i uran konida shaxyor, Mag'mura opa esa farrosh bo'lib ishladi.

Ularining yurtimizdagi hayoti shu tariqa davom etdi. Ko'p o'tmay baxtli oilada birin-ketin farzandlari Rahima, Rashid, Rohila va Rahimjon dunyoga keldi. Ham ish, ham ro'zg'or tashvishi, ham farzandlar kamolini musharakat olib borish, albatta, ulkan mas'uliyatni talab etadi. Yoshlikdan mehnatda chiniquqan, hayotning turli sinovlarida toblangan Mag'mura ona to'rt

farzandni oq yuvib, oq taradi va munosib farzandlar etib voyaga yetkazadi.

Ming afsuski, hayotda kutilmagan sinovlar ham uchrad turadi. 1973 yilda To'layevlar oilasi boshiga og'ir musibat tushdi. Oila boshlig'i

ishlab, onasiga qanot bo'ldi. Turmush o'rtog'ining vatondan so'ng farzandlariga ham ona, ham ota bo'lishlik vazifasini zimmasiga olgan Mag'mura onaning ko'nglidan g'ussalar chekinib, hayoti izga tushib ketdi.

Onaxonning fidokorona xizmatlari o'z rag'batini topgan. 1979 yilda "Mehnat faxriysi" medali bilan taqdirlandi. Shu yili korxonaga jamosi uni izzat-ikrom bilan pensiyaga kuzatdi. Bu bilan rishtalar uzilgani yo'q. Ahil jamoa uni har doim yo'qlab, ko'ngil so'rab turadi. Yaqinda onaxon yuz yoshni qarshi olishi munosabati bilan unga NKMK rahbariyatining Tashakkurnomasi yetkazildi. Bu kabi e'tibor va e'tirofdan onaxonning quvonchi cheksiz.

Men hayotimni O'zbekiston-siz tasavvur qilolmayman. Garchi, Tataristonda tug'ilgan bo'lsamda, hayotimning asosiy davri kechgan o'lkada serquyosh yurtida topdim, mehr ko'rdim. Bilasizmi, bu dunyoda shu yurt qal'adek bag'rikeng, saxovatli odamlar bo'lmasa kerak Bugun hammamiz inson qadri yuksalib borayotgan bir davrda yashayapmiz. Ilohim, yurtimizga, tinchligimizga ko'z tegmasin, elimiz baxtiga dono Yurtboshimiz omon bo'lsin! Mening hol-ahvolimdan tez-tez xabar olib turadigan Navoiy kon-metallurgiya kombinati rahbariyati va kasaba uyushmasidan minnatdorman. Ularining iliq mehri, dindalari umrimga umir qo'shmoqda, - deydi yuz yosh bilan yuzlashgan onaxon.

Ha, Mag'mura aya aytgan ushbu niyat, yurakdan aytilgan xolisona e'tirof, beqiyos shukronalik ifodasidir. Bizning ham niyatimiz bitta: ilohim, tabarruk yoshga yetgan onaxonimiz bundan-da ulug' yoshlarni ko'rsin, umrining qolgan chog'ini farzandlari, o'n nafar nabira, o'n yetti nafar chevaralar ardog'ida mazmunli o'tkazsin.

Dildora KARIMOVA,  
jurnalista.

## ■ Xabar

QUYOSH SUV ISITGICHLARI  
O'RNATILMOQDA

Bugungi kunda energiyani tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish muhim va dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekistonda quyosh va shamol energiyasini hosil qilishda juda yaxshi sharoitlar mavjudligi qayta tiklanadigan energiya loyihalarini ishlab chiqish uchun juda qulaydir. "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ mamlakatimizda "yashil" energetika sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarda faol ishtirok etmoqda.



Joriy yil oxirigacha Shimoliy kon boshqarmasi ishlab chiqarish bo'linmalari va korxonada xodimlarining turar-joy binolariga 225 ta quyosh suv isitgichlarini o'rnatish rejalashtirilgan. Eng yirik quyosh suv isitish stansiyasi Issiqlik, suv, gaz ta'minoti va oqava suvlar sexi, Nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika vositalari markaziy laboratoriyasi, 6-Yong'in qutqaruv qismi, Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyada ham quyosh suv isitgichlarini o'rnatish bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Quyosh suv isitish stansiyalarini qurish ishlarida yetakchi muhandis Jamol Mustafoev, Issiqlik, suv, gaz ta'minoti va oqava suvlar sexi energetigi Bobomurod Qurbonov, Tog'kon jihozlarni ta'mirlash sexi energetigi Po'lat Xo'jayev kabi tajribali mutaxassislarining xizmatlari katta bo'layapti.

Laylo KARIMOVA,  
SHKB Axborot va ma'naviyat-ma'rifati guruhi muxbiri.

## ■ Sarhisob

Yuksalikda turib kuzatayotganim – kon maydonidagi ulkan texnikalar go'yoki bolajonlarning mitti o'yinchoq mashinalari kabi harakatlanmoqda. 490 metr balandlikdan qaraganda, juda kichik ko'ringan odamlar fan-texnika, qolaversa, insonning beqiyos qudratini namoyon etish bilan mashg'ul. Namuna oluvchilar zamin bag'rini burg'ilayotgan uskuna yer qaridan olib chiqqan toshlarni qoplarga joylashmoqda. Aynan shu jarayon Shimoliy kon boshqarmasi Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriya jamosining mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. Hudud tuprog'ining fizik-kimyoviy xossasini aniqlash, tarkibini o'rganish, aniq xulosa berish kabi mas'uliyatli vazifalar mazkur laboratoriya zimmasidadir.

Tarix qatlarini varaqlarkanmiz, 1958 yilda tashkil topgan Shimoliy kon boshqarmasi tarkibida, avvaliga, ma'lum bo'linmalargina mavjud bo'lganini va sanoat ehtiyojidan kelib chiqib, yana bir muhim bo'linma tashkil etish zarurati tug'ilganini ko'rish mumkin. Uchquduq konining o'ziga xosligi geofizik o'lchovlarni laboratoriya tadqiqotlarisiz va namunalar tahlilisiz tekzor-qidiruv ishlarida keng qo'llashga imkon bermas, bundan tashqari, tuproq va fizik-kimyoviy ma'danilarni fizik-mexanik sinovdan o'tkazmasdan turib, rejadagi samaraga erishish mumkin emasdi. Shu boisdan ham 1963 yilda Fizika-kimyoviy laboratoriya tashkil etildi. Kon-metallurgiya kompleksining rivojlanishi, yangi shaxtalar va karyerlarning ishga tushirilishi bilan laboratoriya tadqiqotlarining ahamiyati ham, xodimlarining texnik salohiyati ham shunga mos ravishda o'sib bordi. Xodimlar tahlilni takomillashtirish, foydali qazilmalarni o'rganishning yangi usullarini ishlab chiqish va joriy etish bo'yicha katta hajmdagi tematik va uslubiy ishlarni amalga oshirdi. O'sha davrda, uran konlarini baholashda ularning ahamiyatini sezilarli darajada oshirgan prinsipial yangicha yondashuv saksoninchi yillarning boshlarida, qazib olingan va qidirilayotgan uran konlari murakkabligi aniq isbotlangandan keyingina amalga oshirildi. Uchquduq tuprog'ida uran bilan bir qatorda reniy, molibden, skandiy, vanadiy, itriy va boshqa elementlarning ham mavjudligi uran konlarining ahamiyatini oshirdi. O'rganilayotgan va o'zlashtirilayotgan konlarning murakkabligi bilan bog'liq muammolar konxonaning geologik-geofizik xizmati oldiga ko'plab vazifalarni qo'yan, eng muhimi, ishon-

chli laboratoriya bazasini yaratishdek katta mas'uliyat yuklagandi. Ana shu maqsadda, 1980 yillarning boshlarida Fizika-kimyoviy laboratoriyasi texnik va uslubiy jihatdan qayta jihozlandi, foydali elementlarning katta majmuasi uchun rentgen-spektral, spektral tahlillar joriy etildi.

Uchquduqda oltin konlarini qidirish va baholash bo'yicha qidiruv ishlari kengayishi, shuningdek, "Kokpatas" koni negizida oltin qazib olish majmuasini qurish belgilanganligi munosabati bilan laboratoriya xizmatiga oltin konstruksiyalarini tahlil qilish usullarini o'zlashtirish va joriy etish vazifasi yuklatildi. Shu bois, 1990 yil boshida namunalarini tahlil qilish uchun eritish pechi o'rnatildi, oltin va kumush namunalarini tahlil qilish uchun atom-absorbsiya usuli o'zlashtirildi.

1995 yilda "Markaziy" maqomini olgan Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasida hozirgi kunda Kimyoviy tahlil laboratoriyasi, Namunalar tayyorlash laboratoriyasi, Namuna va atom-absorbsiya tahlili, Elektr jihozlarni ta'mirlash, Geofizik o'lchov vositalari va ularga xizmat ko'rsatish guruhlarini faoliyat olib bormoqda. Laboratoriya rentgen-spektral, atom absorpsion yutilish, oltinugurt ekspress tahlillari, ionomerlar, namunalarini flotatsiya usulida boyitish, namunalarini sorbsion sianlash, mikroanalitik va tahlil tarozilar, tahlil laboratoriyasi va maydalash qurilmalari bilan jihozlangan. Laboratoriyaning asosiy vazifasi fizika-kimyoviy usulda, keltirilgan namunalar tarkibidagi foydali elementlar miqdorini aniqlab berish, turli elementlarning namuna tahlillarini amalga oshirishdan iboratdir. Laboratoriya O'zbekiston Respublikasi mu-

vofiqlash sohasi talablariga muvofiq, sanoat mahsulotlarida uran va oltinni aniqlash borasida texnik asoslash bo'yicha muvofiqlashtirildi. Ushbu mo'ljaz bo'linmaning ilmiy ish hajmi, tadqiqotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, uni kon boshqarmasi laboratoriya ishlarining markazi, desak yangilashmaymiz. Oltin yil davomida konlardan keltirilayotgan sanoat mahsulotlarining laboratoriya nazoratini amalga oshirib kelayotgan jamosining intellektual salohiyati nihoyatda yuqori. Bo'linma xodimlari ish uslublarini takomillashtira borib, berilgan topshiriqlarni

Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi kichik jamoa, biroq bu maskanda qablari ulkan insonlar, turli millat vakillari bir oiladek hamijhatlik ila faoliyat ko'rsatib kelishmoqda. Afg'on urushining og'ir musibatlarini ko'rgan, tinchlikning qadri uni ulug'lovchi Sharif, Atchilievda shukronalik, Yana Churikovada samimiylik, Nilufar Raxmonovada shijoat, Xolida Numanovada kamtarlik, Gulnora Uraqovada mehnatsevarlik kabi fazilatlar mujassam. Bo'linma Shimoliy kon boshqarmasida o'z o'rniga ega. Buning ortida ahil jamoa va Alisher Botirovdek ilmi, odamiylik fazilatlariga bilan xodimlari

## KICHIK JAMOANING KATTA ISHLARI



riga o'rnak-namuna bo'luvchi insonning hissasi turibdi.

Shimoliy kon boshqarmasida Yangi O'zbekistonga xos ravishda yangilanishlar avj pallasida. Sanoat-texnika sohasidan tashqari, ta'mirlash-qurilish, jihozlash-ta'minot, axborot-ma'naviyat kabi tarmoqlarda ham keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ishlab chiqarish korxonasi ham xuddi oiladek - ta'minotchining saxovatini nihoyatda zarur. Xonamizdagi eski stullardan biri haqida hamkasbimning: "Ha stol mendan katta", degan hazilomuz so'zidan stulning "yoshi"ni aniqlab ko'rsam, uning aytganicha bor ekan. O'tgan yili ana shu jihozlarnimizni "nafagaqab" kuzatdik. Xonalarimiz ko'rkamlashib, kitoblar, hujjatlar va kiyimlarni saqlash uchun yangi, zamonaviy mebel jihozlariga ega bo'ldik. Ta'minotchilar tomonidan korxonaga bo'linmalariga qishki-yozgi konditsionerlar, muzlatgichlar, mikroto'lqinli pechlar, televizorlar, suv kullerlari kabi maishiy texnikalar keltirildi. Amalga oshirilgan yangilanishlardan xuddi yangi uyga ko'chib kirgan kishidek qalbag'a ajib xursandchilik indi. Yangilanish jarayoni to'xtab qolgan yo'q, butun kon boshqarmasi bo'yicha davom etmoqda. O'zining 60 yillik yubileyiga tayyorgarlik ko'rayotgan Markaziy fizika-kimyoviy laboratoriyasi ham Shimoliy kon boshqarmasining boshqa bo'linmalari kabi yangilanish va o'zgarishlardan chetda qolmay, qutlug' sana munosabati bilan yangi binoga ko'chib o'tish arafasida. Laboratoriya jamosiga - e'tibor va e'tirofning quvonchli onlari juda yaqin.

Nilufar MUYDINOVA,  
SHKB Axborot va ma'naviyat-ma'rifati guruhi mutaxassisi.



■ **Fotoijodkor Abdug'ani Jumayev 70 yoshda**

O'zbek fotografiyasida shuhrat qozongan ijodkor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Abdug'ani Juma (Jumayev) ijodxonasi poytaxtimizning Sebzor dahasida joylashgan. O'tgan asrning 80-yillarida bunyod etilgan to'qqiz qavatli binoning sakkizinchi qavatiga ko'tarilishigiz bilan lift boshida sizni Abdug'ani aka tabassum bilan kutib oladi. U yerda ilk bor rahmatli ustozimiz, jurnalist, shoir Odil Hotamov bilan birgalikda bundan 10 yillarcha avval "Bunyodkorlik epopeyasi" epik fotoko'rgazmasi taassurotlari bilan "qo'ngan" edik. O'shanda ustozimiz o'z hayratlarini yashira olmay fotografining ustaxonasi san'atning haqiqiy mo'jizakor suvratlari bilan har qanday kishini maftun etishini aytgan yodimizda. Bu yerda fotosan'at asarlarining nozik detallarini anglagan kishi borki, boshqacha bir olamga tushib qolgandek bo'ladi go'yo. O'shanda uyg'ongan hislar hali-hanuz qalbmizni tark etgani yo'q...



# HAYRAT SOHILI

**FOTOGRAFNING USTAXONASI...**

2023 yil may oyida... Poytaxtga kelganimizdan xabar topgan Abdug'ani aka qo'ng'iroq qilib, "zudlik bilan ustaxonaga kelinglar! Boshqa joy topaman, deb ovora bo'lib yurmanglar, qo'lbo-la osh qilaman. Maza qilib suhbattashamiz", - deb qoldilar. Ha, akamiz shunaqa mehmondost!

Abdug'ani Jumaning fotojurnalistika sohasida qariyb yarim asrlik qizg'in faoliyati shaxsiy ustaxonasida kaftdek namoyun. Foto ishini tushunadigan hamkasblari, shogirdlari ijodkorning ustaxonasiga kelishni xush ko'radilar. U yerda nafaqat tasvirlarda aks etgan milliylik, balki o'zbek adabiyoti to'g'risida qizg'in suhbatlar uyushtiriladi. Bu yil taniqli fotograf ulug' yosh - 70 yilligini keng nishonlash arafasida. Shu bois, Toshkentdan tashqari o'zi tug'ilib o'sgan viloyat shaharlarida ham ko'rgazmalar tashkil etishni maqsad qilgan. Shu sabab biz bilan bu borada ham gaplashib olishni maqsad qilgan ekanlar.

Rahmatli Saydi Umirov e'tiroficha bor. Gazeta sahifalarida Abdug'ani aka ijodxonasida uyg'ongan hayratlarini shunday ta'rif etgan edi: "Salkam qirg' yil ichida yaratgan reportaj, portret, peyzaj, naturmortlari sonini o'zi ham bilmaydi, o'n mingdir, yigirma-o'ttiz mingdir... Ahyon-ahyonda ijodxonasida bo'lib turaman: sandiq-sandiq suratlar, quti-quti negativlar, dasta-dasta oq-qora, rangli tayyor kadrlar, devorlarda kattalashirilgan suratlardan namunalar: davra bo'lib o'rtadagi sumalakni maza qilib yeyayotgan bolalar, karnay-sumay sadolari ostida bayram qilayotgan yurtdoshlar, ustozlari Chingiz Ahmarov, Rafael Toqtosh, Odil Yoqubov, Rahim Ahmedov, rejissor Bahodir Yo'ldoshev siymolari, olimlar, hunarmandlar, peshonalari bir-biriga tekkuvay bo'lib jiddiy suhbat qurayotgan Said Ahmad va Ozod Sharafiddinov, qishki paltosi, qorako'l shapkasi nihoyatda yarashig'lik, labida sigaret, o'ychan Shukur Xolmizrayev, xayolga cho'mgan Muhammad Yusuf, javonlarda, stol ustida dastxat yozib tuha qilingan, sotib olingan ilm, san'at, badiiyatga oid jild-jild kitoblar, turfa narsa, buyumlar. Va, albatta, fotoapparat, ish qurollari (o'z vaqtida ko'p va xo'p ish bergan "FED", "Zenit", "Kiyev" kabi boshqa rusumli apparatlar hozir zaxirada...). Keyingi vaqtlarda usta ko'proq "Nikon" apparatidan foydalanayapti. Bir talabning "Shu apparatingizning narxi qancha turadi?", deya bergan betakallif savoliga jilmayib, "Ustma-ust sovrin oladigan zo'r otni mashinaga almashtiraydigan chavandoz haqida eshitganmisiz?", deya hazilomuz javob qaytargan edi. To'g'ri-da, shundan non topgan, nom topdandan keyin pulning betiga qaraladimi?"

Shoir va tarjimon Vafo Fayzulloh ham e'tirof etganidek, "Dilkash suhbatdosh gurgunglari mehvarida fotoalam turishiga qaramay, shu nuqtada san'atning barcha turlari uchrashadi. Hayot borasida rost va dilbar, ehtimol sal chapaniroq, lekin dangal fikrlarini qo'yib yuboradigan bu insonni hammadan ko'ra ko'proq o'zi juda qattiq sevadigan qadrlil hayoti juda qiziqtiradi; o'tkir nigoh, betakror, favqulodda jur'atli fotosuratlash sifatida tabiat va jamiyatning yangi va o'zgaruvchan, turlanuvchan va sobit, eng asosiysi, juda go'zal nuqta va damini odamlarga ko'rsatib, zavqlantirish ilinji va abadiyatga muhrlash dastiyorchiligi kishini hayratlantiradi".

Ustaxonada biz bilan kechgan dilkash suhbatlar dastavval diktafonga yozib olindi, so'ngra oq qog'ozga tushdi... Abdug'ani aka il-homanib, jo'shib gapga tushib ketsa to'xtatish qiyin. Lahzalik pauzadan foydalanib ustozlari, hamkasblari haqida so'raymiz. "Surat tufayli ancha mashhur odamlar bilan yaqin, qadrdon bo'lib ketdim. Ustozlardan yolg'inman, ko'p narsa o'rganganman", deya kamtarona o'zlariga baho beradilar. Aslida ham shunday....

**FARANG BRESSONI VA O'ZIMIZNING ABDUG'ANI AKA...**

XX asr fotografiya san'atining yirik namoyandasi, farang fotografi Anri Kartiyer-Bresson (1908-2004yy.) realistik fotografiya janri asoschisi sanaladi. Uning fotografiya olamiga kirib kelishi ancha-muncha qiziq kechgan: 1929 yilda bo'lajak san'atkor harbiy xizmat o'tayotgan vaqtda litsenziyasiz ov qilgani uchun ma'lum muddat uy qamog'iga mahkum qilinadi. U ozodligi cheklangan shu kunlarda amerikalik muhojirlar bilan uchrashadi va ulardan biri Anriqga kamera sovg'a qiladi. Bolalikdan rassomchilikka qiziqqan Bresson shu tariqa suratlar olishga qizg'in kirishib ketadi. U badiiy asarlar o'qishga ham qiziqar va eng sevimli kitobi "Zulmat yuragi"



1953 yilda Navoiy viloyati Navebaxor tumani da tug'ilgan.  
1979 yilda Toshkent xalq xujaligi institutini tamomlagan.  
"Guliston", "Saodat", "Eshlik" jurnallarida fotojurnalist sifatida faoliyat olib borgan. 48 yildan ortiq vaqt mobaynida ijodiy fotojurnalist bilan shug'ullanib kelmoqda.  
Yaponiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Xindiston, Germaniya, Lyuksemburg, Italiya, Frantsiya, Daniya, Rossiya, Qozog'iston davlatlarida fotojurnalistlar qatnashgan. Xalqaro fototantlovlar sovrindori.  
1999 yil - "Yillning foto ustasi"  
2001, 2013 yillarda - "Eng ulug', eng aziz" Respublika tanlovlari g'olibi.  
2002 yil - "Yillning eng faol jurnalisti" tanlovi g'olibi.  
Uzbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi, Uzbekiston Badiiy Akademiyasi Badiiy ijodkorlar uyushmasi, Xalqaro fotojurnalistlar federatsiyasi (FIAP) a'zosi.  
1996 yilda "Shuxrat" medali bilan taqdirlangan. 2014 yilda "Uzbekiston Respublikasida xizmat kursatgan madaniyat xodimi" faxriy unvoni berilgan.  
2022 yilda I darajali "Mexnat faxriysi" ni shoni bilan mukofotlangan.

romani edi. Sarguzashtlarga qiziquvchan fotograf o'sha vaqtda Fransiya mustamlakasi Afrikadagi Kot-d'Ivuariga qochishga qaror qiladi va bir muddat ana shu mamlakatda istiqomat qiladi. U yerdan ona Vataniga qaytib kelgach esa to umirining oxiriga qadar dunyo fotografiya san'atiga ulkan hissa qo'shadi.

Mana shu sarkash taqdir va Abdug'ani Jumaning umr yo'li o'xshashdek! Sababi qahramonimiz ham harbiy xizmatdan so'ng ona qishlog'iga qaytqach tasodifan fotoapparatga duch kelib, bu antiqva buyumga hayrat bilan boqadi va ilk da'fa atrofi suratga ham tushiradi. Ana shu onda u qarshisidagi butun borliqni, undagi sir-asrorni ham to'ralig'icha tuyib, bu hisni tasvir vositasidagina ifodalash mumkinligini ham payqaydi.

**O'TDA YONMAGAN TUYG'ULAR**

Adabiyotga bolalikdan oshno Abdug'ani murg'ak qalbidan joy olgan dostonlardagi badiiyatni his etib, sujetni xayolida gavdalantirgan ekan, har bir voqeani tasavvurida aniq-tiniq jonlantirardi. Maktab davrlaridayoq she'rlar yoza boshlagan bo'lajak fotografining ijodiy bardavomligida maktabdoshi Odil Hotamovning ham ta'siri katta bo'ldi.

Rahmatli Odil aka talabalik yillarimizdayoq bir gapni aytardi, - deydi Abdug'ani aka. - Yangi she'rni yozib, kamida uni besh yil tashlab qo'yish kerak. Shundan so'ng muallifga o'z yozganlari erish tuyulmasa, haqiqiy she'r bo'ladi. Men aynan mana shunday qilganman...

...1979 yil, bahor. Toshkentning Qoraqamish hudidagi ko'rimsiz maydonchada kichik bir gulxan yoqilgan. Alangaki, unda orzu-umidlar, hislar yonmoqda! Talaba yigit Abdug'ani yozib yurgan jamiki she'riy mashqlari tushirilgan daf-talarining varoqlarini birma-bir yirtib yoqarkan, lov-lov yonayotgan va avval qorayib, so'ng kulga aylanayotgan qaydlardan ko'zini uzmas, shu pallada xatti-harakatidan zarracha afsus tuyumagan ijodkor aslida hayotida mutlaq yangi bir qizg'in himda o'tli umr sahifalari ochilib bo-

rayotganini ham sezib turgandi go'yo. - Bir kuni O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasida Abdulla Oripov ijodiga bag'ishlangan adabiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Va mana shu davrada she'riyatni nega tashlaganimni ochiq gapirdim. O'zbek adabiyotida Abdulla Oripovdek daho shoir borligi uchun ham she'r yozishdan to'xtaganman!

**BIR UMRLIK SABOQ...**

Fotojurnalistika, bu avvalo, ijodiy faoliyat. Reportyorlik esa mana shu ijodning o'zagi sanaladi. Badiiyat unsurlaridan foydalangan fotografiya san'atining ichki qonuniyatlarini anglagan holda olib boriladigan faoliyat bora-bora san'at darajasiga ko'tarilishi mumkin. Albatta,

va tashvishlari, yoshlik, keksalik qiyofalari o'rin egallaydi. "Noyob asarlar cho'lda, yo'lda, bog'da yoki tog'da yaratiladi", deydi Abdug'ani aka hazilomuz ohangda. Albatta, fotograf ijodi uchun asosiy manba makon va zamon hamda odamlardir.

Ammo, asarning nechog'li mashhur bo'lishi prototip obrazidagi shaxsning jamiyat orasidagi mavqeiga ham bog'liq. Abdug'ani Juma ijodining o'tgan davrida 200 nafarga yaqin eng taniqli shoir, yozuvchi, adabiyotshunos, olim, ko'plab san'at arboblarning badiiy obrazlari ustida ishladi.

Fotografiyada armonlarim ham yo'q emas, - deydi ijodkor chuqur o'yg'a tolib. - Shoir Mirtemer domlari bir necha bor ko'rganman, afsuski, tasvirga olishga ulgur olmay qoldim. Portret yechimini juda chuqur o'ylaganim bois Turg'un Alimatov portreti ham armon bo'lib qoldi.

Ba'zan shunday bir manzaraga duch kelasizki, undagi cheksiz hayratning oxiriga sira yeta olmasiz, - deydi Abdug'ani Juma O'zbekiston bo'yab sayohatlarini eslar. - 2012 yil, yoz oylarida taniqli shoir O'roz Haydarning chorlovi bilan Chiroqchi tomonlarga yo'ldim. Hisor tog'lariga, yozuvchi G'ozil Rahmon uyi tomon birgalikda borarkanmiz, Hayitgul dashti qarshimizda paydo bo'ldi. Bu yerdagi poyonsiz qirlarda odamlar turli bahoriy ekinlar yetishtirgan, ayni bug'doy o'rini qizg'in bir palla ekan. Tabiat va insonning mo'jizasi shundoqqina qarshimizda edi. Bu manzarani suratga olarkanman, ana shu yerdagi jamuljamlik - turfa ranglar, qizg'in hayotning bir kadra aks etishi meni juda zavqlantirib yubordi va qayta-qayta aynan mana shu dashtni tomosha qilishga bir necha marotaba bordim. Ana shunday makonlarda ko'pqatlamli suratlarini yaratish mumkin.

2019 yil, bahor. Abdug'ani Jumayev tug'ilib o'sgan viloyatning bir qator tarixiy maskanlari - Qizilqum bag'rida yashirgan Toshon'rmon, sirli Sarmish darasi qoyaligidagi qadim petrogliflar, Langar tog'larini hayabati, Sentob tarovatiyu Haydarko'l mavjlari... Shovullab qirg'oqqa urilayotgan ko'lining bedov otlarning sokin ush ichish manzarasi - mag'rurlik va ozodlik timsoli bo'lgan otlar, cheksizlik ramzi bo'lgan poyonsiz sohil... Abdug'ani aka tezda o'sha tomonga yaqinlashib, otlarni hurkitmaslik uchun olisroqdan kamera obyektini o'sha tomonga to'g'riladi. Fursatni boy bermay tezda uni kadrga joyladi. Ular sezdimi, shiddat bilan qirg'oqni tark eta boshladi. Loq qaragancha o'tkir nigohlarini suruvdan uzmay turaverdi - u. Mana shu holatida butun borliq bilan qalban bog'langan, ona tabiat bilan ajib uyg'unlikni his etayotgandi.

...San'at ummoning hayrat sohilidan hamon borliq hayratiga termulib turgan fotomusavvir allaqachon aslida borliqdag har bir taraf - har bir qadam hikmatga to'la ekanligini isbot eta oldi va aytish kerakki, uning o'zi ham yuzlab qimmatli asarlari bilan hayratga singidi - aylandi... Shoir Salima Umarov she'rga solib bitgan ko'ngil kechinmalari bunga dalildir.

San'atni sog'inmay, sevmay bo'lmaydi, Men ham, rost, sormen ijodingizga. Bir eldosh, bir dildosh - mehdosh bo'lib, Yurt sog'inchin solayin yodingizga. Har giyoh, har yaproq, har dov - daraxtki, Bunda - yo'lingizda intizor, ko'mar, Yaratuvchan dunyo shunchalar ulug' Havaslarni olur, hayratlar tutar. He mong, shunday baxtli Abdulg'anisiz, O'zi yuqtirgan Ishq, Ma'no - ma'nisiz!

**Azamat ZARIF, Ozod MUSTAFO, O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zolari.**

■ **С тёплым чувством**

## ○ ТАКОМ ЧЕЛОВЕКЕ ХОЧЕТСЯ РАССКАЗАТЬ...



**В 65-летнюю историю Навойского горно-металлургического комбината вписаны имена многих первопроходцев – руководителей, специалистов, рабочих... Сегодня рассказ об одном из старейших работников комбината, имеющем звание "Ветеран НГМК", который в настоящее время трудится мастером бурового участка геологоразведочной партии Государственного предприятия "Навоийуран". Кaxрамон Абдуллаевич Суванов - работник, наставник, сын, брат, муж, отец, друг и, конечно же, наш коллега.**

Он родился в 1968 году, через 10 лет после создания НГМК, в Нарпайском районе Самаркандской области. Кaxрамонем внука назвал его дедушка, в полной уверенности, что он обязательно оправдает своё имя, которое в переводе с узбекского означает "герой". В семье были строгие правила воспитания, в первую очередь, это уважение к старшим, порядочность и дисциплина. Кроме того, умный и любознательный парень имел огромный интерес к учёбе, и после окончания средней школы в 1985 году поступил в филиал Ташкентского политехнического института в городе Навои. По семейным обстоятельствам вынужден был пойти работать, и учиться пришлось на вечернем отделении.

Вся трудовая деятельность К.А.Суванова связана с Навойским горно-металлургическим комбинатом. Его первым местом работы в 1985 году было Жилищно-коммунальное управление, где он начинал с простого рабочего. В 1986 году его призвали на службу в армию, по окончании которой продолжил работать в ЖКУ, но уже в качестве замещателя маркшейдерских и геодезических работ на участке водозащиты. В 1995 году К.А.Суванов был переведён в Центральную геологоразведочную партию НГМК замещателем топографо-геодезических и маркшейдерских работ. Молодой, активный, коммуникабельный и инициативный парень с большим интересом изучал профессию, с ним с удовольствием делились опытом наставники. Кроме того, прекрасно владея русским, узбекским и таджикским языками, Кaxрамон Абдуллаевич успешно решал многие производственные вопросы. И в 2013 году его перевели мастером на участок буровых работ.

За небольшой период времени, благодаря активному участию в жизни коллектива, организаторским способностям, трудолюбию, ответственности и целеустремлённости, Кaxрамон Абдуллаевич завоевал авторитет среди своих работников, и был избран председателем профсоюзного ЦГРП. Сотрудники до сих пор вспоминают, как интересно и весело проводились культурно-массовые и спортивные мероприятия в коллективе, поездки на природу, конкурсы и вечера в честь праздников. Не обделялись вниманием ветераны и пенсионеры, и такая душевная и благоприятная атмосфера сохраняется в коллективе до сих пор.

В связи с трансформацией предприятия в 2021 году работники ЦГРП НГМК, специалисты и рабочие, закреплённые за участками по разведке урана, со своим оборудованием, буровыми установками и техникой были переведены в геологоразведочную партию Государственного предприятия "Навоийуран". Новое подразделение под названием ГРП расположилось на территории п.г.т. Зафаробод ГТР-2 «Южный Букинай». В январе 2023 года в структуре произошли ещё некоторые изменения, в ГП «Навоийуран» был создан Научно-производственный центр, в состав которого вошли три геологоразведочные экспедиции и геологоразведочная партия, где и работает К.Суванов по той же профессии в настоящее время.

На работе у Кaxрамона Абдуллаевича всегда всё в порядке, успевает во всё и вовремя справляется со своими обязанностями. Бывает и строг, и суров, но по справедливости. А если необходимо кому-то помочь, всегда поможет! За свои трудовые заслуги и добросовестный труд имеет ряд дипломов, благодарностей, почётных грамот. В мае 2022 года наш герой удостоен почётного отраслевого знака "Ветеран НГМК". Эта награда дала ему ещё больше жизненных сил и энергии на выполнение новых производственных задач.

Целеустремлённость и трудолюбием отличаются все члены семьи К.А.Суванова. Более 30 лет он счастлив с супругой Хокимой, которая работает в МСЧ-27 медсестрой скорой помощи. Вместе вырастили и воспитали троих детей. Дочь Насибохон Абдуллаева пошла по стопам отца, окончила факультет "Геология" Навойского ГТИ и трудится на ГМЗ-1. Сыновья, как и мама, выбрали медицину. Младший сын Мухаммадали учится на 2 курсе Бухарского медицинского университета. Гордостью семьи является старший сын Достонжон. Выпускник Украинского медицинского института, в 2021 году поступил в Российский университет дружбы народов (РУДН) имени Патриса Лумумбы, по окончании которого ему присвоена квалификация врача-пластического хирурга.

Кстати, новость о получении сыном диплома стала отличным подарком Кaxрамону Абдуллаевичу на 55-летний юбилей. А ещё одним неожиданным подарком к юбилею стала подаренная Достонжонем отцу автомашина "Manzi"...

Есть такая пословица, где нет хороших стариков - там нет хорошей молодёжи. И это действительно так. Наш герой - Кaxрамон Абдуллаевич - является хорошим примером для будущего поколения нашей страны, Нового Узбекистана!

Гульфия ВАЛИЕВА.





■ “NKMKning 65 yilligiga” tanloviga

O'sha men...

Onamdek boshimni silaydi osmon,  
Og'amdek yelkada opichlar zamin,  
Qay singil baxt haqda ko'ylasa shodon,  
O'sha – men!

Qoqilsam suyangay purviqor tog'i,  
Soylari opamdek beradi taskin,  
Qay ko'ngil yayrasa ochib quchog'in,  
O'sha – men!

Suvlari sirimni sotmagan dilbar,  
Bosh qo'ysam toshlari bolishdek mayin.  
Kimki chin farzanddek sevolasa agar,  
O'sha – men!

O'sha men – ildizi bir senga tutash,  
O'sha men – “ota” deb senga oshiqqan.  
O, qanday baxt erur seni deb yashash?!  
Seni deb o'lmoq ham sharaftur, Vatani!

Suyanch

Qal'aga mustahkam qo'rg'on kerakdir,  
Har onaga bir mard o'g'lon kerakdir.  
Hatto ilmga ham posbon kerakdir,  
Avvalo, avvalo, inson kerakdir!  
Har nihol - bog'im deb suyansin sizga,  
Har ayol - tog'im deb suyansin sizga!

Chekinmang, garchi g'ov ming tuman bo'lsin,  
Siz qadam bosgan yo'l - zar, chaman bo'lsin.  
Har bir amalingiz ezgu sha'n bo'lsin,  
Ko'ksingiz farzandga bir vatan bo'lsin!  
Har bola - bog'im deb suyansin sizga,  
Har ona - tog'im deb suyansin sizga!

Shirolari sirin sotmagan yurt bu,  
Jaloliddin yerin sotmagan yurt bu.  
Alpomishi yorin sotmagan yurt bu,  
Temurlari orin sotmagan yurt bu!  
Har maysa – chinor deb suyansin sizga,  
Shu millat – minor deb suyansin sizga!

Har bir dil – bir mehri ummon istagay,  
Har bir gul – bir sodiq bog'bon istagay,  
Har bir el – g'ururi osmon istagay,  
Yana “Alpomish”dek doston istagay.  
Barchinlar – yorim deb suyansin sizga,  
Singillar – orim deb suyansin sizga!

Siz borki, yurtimiz tongi nurafshon,  
Bunda Vatan obod, musaffo osmon.  
Sizga bo'lsin – sharaf, sizga bo'lsin – shon!  
O'ziga bek xalqqa munosib o'g'lon,  
Har nihol – bog'im deb suyangay sizga!  
Har ayol – tog'im deb suyangay sizga!

Ra'no FAYZULLAYEVA,  
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi.

Vatan – sening tenging yo'q!

Vatan - sen bebahomsan, tenggi yo'q durdonamsan,  
Seni sevish iymondan, sen mening bir donamsan.

Nechun seni sevmayin, nechun seni demayin,  
Tomchi suv desam o'zni, Vatan sen ummonimsan.

Suyangan tog'im sensan, yashnagan bog'im sensan,  
Seni desam yayrayman, quvongan chog'im sensan.

Bag'ringdan hech chiqqim yo'q, qalbi qaynoq maskansan,  
Erkalaysan bag'ringda, mehri qaynoq Vatansan!

Chetga chiqsam bag'ringga sehring bilan tortasan,  
Sehrlir bir diyorsan, mehning bilan tortasan.

Otamdek ulug'imsan, onamdek mehribonim,  
Sensiz lahzam yilga teng, sen o'zing shavkat-shonim.

Dunyoga sen bo'ylasang, mag'rurdir doim boshim,  
Bo'ying kabi bo'yilar yo'q, ey, ko'kdagi quyoshim.

Ajdodlarim jahonga bo'yingini bo'ylab o'tgan,  
Hofizu mashshoqlaring madhingni kuylab o'tgan.

Uchinchi Renessansni yana biz boshlab berdik,  
Buyuk ajdodlarga xos zalvorli yurish qildik.

Ularning pok niyati, qoni bor qonimizda,  
Ularning pok ruhlari har doim yonimizda.

Hech kimdan kam emasmiz, doim yonib, yashaymiz,  
Kelajakka mardona, shaxdam qadam tashlaymiz.

Vatan seni jonidan ustun deydi ona xalq,  
Abdulhamid Qurboning bu gaplari aynan haq!

Kombinat

Qizilqum sahosida qad ko'targan kombinat,  
Ona yurt qudratini dast ko'targan kombinat.

Oltin-u kumushlardan tog' yaratgan kombinat,  
Sahroni gulga burkab, bog' yaratgan kombinat.

Gul atridan sahroga gasht yaratgan kombinat,  
Har qadami shiddatli, shasht yaratgan kombinat.

O'n besh yilda shon topdi, mehnatidan kombinat,  
Bu - jonfido Yetakching zahmatidan kombinat.

Jamoa qudratini ko'z-ko'z qildi kombinat,  
Mas'uliyat neligini doim bildi kombinat.

Osmondan baland bo'yi, dast ko'targan kombinat,  
Ko'ksidagi ordenni rost ko'targan kombinat.

Sen kirmagan soha yo'q, ko'p tarmoqsan kombinat,  
O'zbekiston ummondir, sen irmoqsan kombinat.

Yer yuzida tengi kam, dong qozongan kombinat,  
Yutuqlaring zalvorli, bong qozongan kombinat.

Oltmish besh yoshga to'lding, to'y muborak kombinat,  
Yutuqlardan yuksalgan, bo'y muborak kombinat!

Abdulhamid QURBONOV,  
“Zarmitan” koni yetakchi muhandisi.



Yurtim

Kindik qonim to'kilgan shu yurt,  
Quchog'ida o'sdim baxtiyor.  
Orzu-istak hamrohim bo'lib,  
O, zafarlar bo'ldi menga yor!

Bobomeros ushbu aziz el,  
Har zarrasin muqaddas saqlay.  
Chin farzandlik tuyg'usi bilan,  
Vatanimning ishonchin oqlay.

Yuksaladi hur O'zbekiston,  
Millatlarga ochib quchog'in.  
Dala, dashti ajib bir bo'ston,  
Ko'z-ko'z etar chamanin, bog'in.

Sen iftixor, sen ulug' g'urur,  
O'zing menga sharaf hamda sha'n.  
Og'ushingda toparman surur,  
Yuksalaver, ey aziz Vatani!

Shonli sana

Bu kun qalbimizda kezar tantana,  
Konchilar qo'r oldi davrada yana.  
Qalblarga o'zgacha shukuh bag'ishlar,  
Netay, ulug' bayram va shonli sana.

Oltmish besh yil - zalvorli dovon,  
Konchilar solnoma yaratgani rost.  
Hatto, yutuqlarni tan oldi jahon,  
Kombinat shon-shuhrat taratgani rost.

Bir maqsad yo'lida kelajak sari,  
Jamoa oldinga bormoqda bugun.  
Mashaqqatli mehnat, shijoat - bari,  
Albatta, NKMK ravnaqi uchun!

Zafarlar hech oson bo'lmagani chin,  
Buning-chun qanchalar chekildi zahmat,  
Kecha va kunduzi hech olmasdan tin,  
Bariga erishdi, oldilar rahmat!

Bugun tan oldirdi jumla-jahonni,  
Dunyoni zabt etib, qoyil qoldirdi.  
Hech kimga bermayin zarra imkonni,  
Kurash maydonida ortda qoldirdi.

Shuhrating bundan-da bo'lsin ziyoda,  
Xazinang boylikka, tilloga to'lsin.  
Niyatim: yuksalgin yorug' dunyoda,  
Korxonam bayraming muborak bo'lsin!

Dildora KARIMOVA,  
Markaziy kon boshqarmasi muxbiri.

Do'stlik ko'prigi

Yurti tinchning bog'i gullar deydilar,  
Xalqi ahil, qalbi osmon deydilar.  
Qo'lni-qo'lga bergan har bir birodrar,  
Ezgulikning shirin nonin yeydilar.  
Qanday yaxshi millatlarning ko'pligi,  
Buzilmasin zinhor do'stlik ko'prigi.

Etiqodi turli, turlicha xilqat,  
Urf-odat, an'ana- har xil qadriyat.  
Xalqi yakdil, aslo manfaat izlamas,  
Birlashtirar ko'ngillarni sof niyat.  
Qanday yaxshi millatlarning ko'pligi,  
Buzilmasin zinhor do'stlik ko'prigi.

Og'ir kunda bilinar har inson qadri,  
Yordamga shay turar mardlarning mard.  
Molingga ko'z tikib, tursa ag'yorlar,  
Faqat chin do'stingning ochiqdir bag'ri.  
Qanday yaxshi millatlarning ko'pligi,  
Buzilmasin zinhor do'stlik ko'prigi.

Bir yuz o'ttiz elga yelkadosh o'zbek,  
Begonalarga ham do'st, qardosh o'zbek.  
Mehridan nur yog'ar, qo'li ko'ksida,  
Shundayin mehmondo'st millatdir o'zbek.  
Qanday yaxshi millatlarning ko'pligi,  
Buzilmasin zinhor do'stlik ko'prigi.

Ozoda ODILOVA,  
Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi.

Mehnatimiz mevasi

Har kuni, har daqiqa,  
Goh safarda, ishdamiz.  
Bola-chaqam, uyim deb,  
Turli-xil tashvishdamiz.

Hayot achchiq, goh shirin,  
Mag'zi qanday bilimiz.  
Ishlaganda ishimiz,  
Yurishganda kulamiz.

Biz konchilar, konchilar,  
Har ishda bardoshlimiz.  
Yaxshilarga yaxshi-yu,  
Dardkashga darddoshimiz.

Millatimga ardoqli,  
Azizdir o'z shevasi.  
Har kimga qadrlidir,  
Mehnatining mevasi.

Vatan

Jonim fido bo'lsin Vatanim senga,  
Sen-chun saholami kezay piyoda.  
Tuprog'ing alishmam hatto tilloga,  
Sen barcha narsadan tengsiz, ziyoda.

Ham onam, ham otam o'zingsan Vatan,  
Millatning g'ururi qalbmida to'lgan.  
Goh yo'ldan adashsam, gohida toysam,  
Menga aso misol suyanchiq bo'lgan.

Sendan ayro yashab bo'lmaydi aslo,  
Sendan uzoqlarda ko'nglim to'lmaydi.  
Vatan seni doim yuksak qadrlab,  
Bugun bog'laringda bodom gullaydi.

Qalbmida hamisha shodlik, xurramlilik,  
Tunlarim osuda, shukur Allohim!  
Mening onamdayin boshim silagan.  
Vatan-otamdayin yolg'iz panohim!

Akbar BURHONOV,  
“Marjonbuloq” koni burg'ilash qurilmasi mashinisti.

Bag'ishlov

Kombinat dovrug'i dunyoga ketgan,  
Yetti iqlim aro olamga yetgan,  
Bugun barcha uni muborak etgan,  
Kombinat, oltmish besh yoshing muborak!

Qizilqum sahosini nurlarga to'la,  
Va bag'ri behisob durlarga to'la,  
Allohim, hamisha bizlarni qo'lla,  
Kombinat, oltmish besh yoshing muborak!

Konchilar belini mahkam bog'lagan,  
Yurtboshim ishonchin doim oqlagan,  
Ilg'orlik bayrog'in mahkam saqlagan,  
Kombinat, oltmish besh yoshing muborak!

Katta jamoa – bu, ulkandir soni,  
Tog'ni talqon qilar har bir insoni,  
Sen faxri, ishonchi O'zbekistonni,  
Kombinat, oltmish besh yoshing muborak!

Mehnat qilar turli el-elat ahli,  
Safingdagi har bitta insoning baxtli,  
G'ururlanishga barchamiz haqli,  
Kombinat, oltmish besh yoshing muborak!

Abdullo JUMAYEV,  
2-gidrometallurgiya zavodi xodimi.

Shukuh

Aziz ona-Vatan – bu, tuprog'i oltin, durdan,  
Nurli, ko'hna zamin – bu, har bir kuni serquyosh.  
Bahra olar yurtodoshlar mustaqillik sururdan,  
Kelajakka intilgan baxtiyordir keksa-yosh.

Odam qo'li gul erur, yaratishga qodirdir,  
Mehnatidan yashnagay har bir cho'lu biyobon.  
Bu zaminda kombinat yagona va nodirdir,  
Uning birla yashnagay mustaqil O'zbekiston!

Zarafshondek to'lg'ongan jamolingdan aylanay,  
Biz bag'ringda baxtiyor, doim o'ynab-kulamiz.  
Kombinatim yuksalish, kamolingdan aylanay,  
Borlig'imni bag'ishlab, mudom xizmat qilamiz.

Yulduzoy DUSHAMOVA,  
Shimoliy kon boshqarmasi Temir yo'l sexi ishchisi.

Yubiley muborak!

Jonajon yurtimning tanhosi,  
Ulkan taraqqiyot mudom asosi,  
Yashnagan suv kelib sahosri,  
Yubiley muborak, ey, kombinatim!

Olg'a boshlamoqda bu ajib hayot,  
Har ishchi o'z ishi va kasbidan shod,  
Mehnat-la qilmoqda o'z yurtin obod,  
Yubiley muborak, ey, kombinatim!

Jamoaning yutuqda ko'pdir hissasi,  
Bardavom g'oliblik xo'p an'anasi,  
Birdamlik tufayli buning barchasi,  
Yubiley muborak, ey, kombinatim!

Boylıklarga to'la har bitta koni,  
Bitmas-tugamadir unda ma'dani,  
NKMK - yurtimning faxri va shoni,  
Yubiley muborak, ey, kombinatim!

Qadring sarbaland va yuksak bo'lsin,  
Solnomang zafarga va nurga to'lsin,  
Yo'lingda hamisha zafarlar kulsin,  
Yubiley muborak, ey, kombinatim!

Nodira UMAROVA,  
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari boshqarmasi muhandisi.

